



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to'plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo'mitasi

Tashkiliy qo'mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo'mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo'mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og'li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o'qituvchisi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Sh. Jabbarov – O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlar doktori, professor. (Qirg'iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog'iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog'iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo'jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog'iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, qishloq xo'jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg'anybayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug'i bilan oliy ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o'tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o'qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan

To'plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to'g'riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

Paydalanilgan ádebiyatlar.

1. А.И.Ерохин, В.И. Котарев, С.А.Ерохин "Овцеводство", типография "ФГБОУ ВПО Воронежский ГАУ имени императора Петра 1", Учебник, Воронеж 2014. 103
2. S.B.Sattorov, R.R.Ro'zimuridov, D.T.Rizayeva, O.S.Boymatov "Qorako'lichilik asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent 2023.
3. S.B.Sattorov, D.T.Rizayeva, X.N.Imomov., «Qo'ychilik, echkichilik va Qarako'lichilik asoslari» uslubiy qollanma Samarqand
4. Бобокулов, Н., Хатамов, А., Абдузоирова, Д., Юсупов, А., Уримбетов, А. и Олмасов, Б. (2021). Мясная продуктивность овец в Узбекистане и её связь с различными факторами. В *E3S Web of Conferences* (т. 258, с. 04020). EDP Sciences.
5. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
6. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (1), 24-26.
7. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.
8. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асаслари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
9. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
10. Мамадуллаев, Г., Мадрахимов, Ш., Бойбулов, Б., & Амиров, Ш. (2023). СПРАВОЧНЫЕ показатели крови лошадей карабаирской породы. in *Library*, 4(4), 34-36.
11. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes.
12. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

SANOAT ASOSIDA CHATISHTIRISHDAN OLINGAN TURLI GENOTIPGA MANSUB SIMMENTAL ZOTLI BUQACHALARNING BO'RDOQILASH DAVRIDA TIRIK VAZN KO'RSATKICHLARI

Madraximov Sh.N., Mamatov X.A., Aitjanov R.T., Nuraddinova M.E., Nuratdinova U.S.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali

Kirish. Go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlarning irsiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, yosh qoramollarning o'sish va rivojlanish sur'atini yanada oshiradi. Bunday qoramollar salmoqli tanaga va

ayniqsa, buqachalari go'sht uchun o'stirilganda yuqori so'yim chiqimiga hamda yuqori kaloriyaga va sifatga ega go'sht maxsulotini yetishtirish imkonini beradi.

Bu zotni takomillashtirishda nafaqat sifatli va to'la qiymatli oziqlantirish, balki seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, ayniqsa avlodlarning nasl sifati bo'yicha baholanib, yaxshilovchi nasl toifasiga ega go'sht yo'nalishidagi nasldor buqa zotlaridan foydalanib, sanoat asosida chatishtirishda keng foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi. Sanoat asosida chatishtirishning avfzalliklardan biri asosan, ularning o'sish jadalligini oshirish asosida go'shtdor qoramolchilikda yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Buning uchun podadan chiqarilgan simmental zotlaridan foydalangan holda go'sht yo'nalishidagi Aberdin-angus, Limuzin va Sharole kabi zotlarning buqalari urug'lari bilan urug'lantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan duragay avlodlari yuqori o'sish energiyasi, ozuqani mahsulot bilan qoplash darajasi, tirik vaznining yuqoriligi, yuqori go'sht chiqimi, go'shtda suyaklarning pastligi, yuqori biologik qiymatga egaligi va boshqa seleksion belgilarida namayon bo'ladi. Shu sababli, sanoat asosida chatishtirish usulidan foydalanish muhim va istiqbolli usullardan biridir hamda dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi sut-go'sht mahsuldorlik yo'nalishdagi simmental zotli sigirlarini sanoat asosida chatishtirishdan olingan birinchi bo'g'in (F_1) duragay avlodlarning tirik vazni ko'rsatkichlarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar 2020-2023 yillar davomida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani "Sardoba temir yo'l agrosanoat majmuasi" ma'suliyati cheklangan jamiyatining chorvachilik fermasida olib borildi.

Biz, chorvachilik fermasida sut-go'sht yo'nalishidagi simmental zotli podadan chiqarilgan sigirlarni go'sht yo'nalishidagi naslli buqalar bilan sanoat usuliida chatishtirish natijasida olingan birinchi (F_1) duragay buqachalarni burdoqilash davrida o'sishini o'rganish uchun to'rt guruhga bo'lib I guruhga sof zotli simmental, II guruhga $\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental, III guruhga $\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental va IV guruhga $\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental erkak buzoqlardan, har guruhga 10 boshdan buqachalar tanlab olindi.

turli yoshdagi buqachalarning tirik vazni bo'rdoqilanshdan oldin ya'ni 12 va 16 oyligida ertalab oziqlantirishga qadar har biri alohida elektron tarozida tortildi;

mutloq o'sish quyidagi formula bilan aniqlandi;

$$A = W_1 - W_0$$

Bunda:

A- Mutloq o'sish; kg

W_0 - Oldingi tirik vazni; kg

W_1 - Oxirgi tirik vazni; kg,

o'rtacha kunlik o'sish quyidagi formula bilan aniqlandi;

$$D = \frac{(W_1 - W_0)}{t_1 - t_0}$$

Bunda: D-O'rtacha kunlik o'sish; gramm

w_0 -Oxirgi tirik vazni; kg

w_1 -Oldingi tirik vazni; kg

t_1 - t_0 -Oxirgi va oldingi oralig'idagi vaqti; kun

nisbiy o'sish tezligi S.Brodi formulasi (K) bilan aniqlanadi;

$$K = \frac{W_1 - W_0}{0,5 \times (W_1 + W_0)} \times 100$$

Bunda: K-Nisbiy o'sish tezligi; %

W₁-W₀-Oxirgi va oldingi tirik vazni; kg

Olingan ma'lumotlar Microsoft Excel 2010 kompyuter dasturi yordamida A.M.Yakovenko, T.I.Antonenko, M.I.Selionova (2013) usulida qayta biometrik ishlov berildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Turli genotipga mansub buqachalarning bo'rdoqilash davrida o'sish va rivojlanishini va undan keyin go'sht mahsuldorligini o'rganish ularni o'stirishning samarli usullarini ishlab chiqishda va sanoat asosida chatishtirish usulining samaradorligini baholashda muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qoramollarning yuqori tirik vaznga ega bo'lishida va go'sht mahsuldorligining shakllanishida hamda irsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ularning genotipi muhim ahamiyat kasb etadi.


Buni hisobga olgan holda, biz sut-go'sht yo'nalishidagi sigirlarni go'sht yo'nalishidagi aberdin-angus, limuzin va sharole zotli buqalar urug'lari bilan sanoat asosida chatishtirishdan olingan turli genotipga ega buqachalarni bo'rdoqilash davrida tajriba o'tkazdik. Tajriba davomida buqachalarning to'la qiymatli va me'yorlashtirilgan ozuqalar bilan to'g'ri oziqlantirishda turli genotipga mansub buqachalar quyidagi o'sish ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval

**Turli genotipga mansub simmental zotli buqachalarning
bo'rdoqilash davridagi tirik vazni, kg**

Guruh	Genotipi	Yoshi, oy (n=10)			
		12		16	
		$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv, %
I	Sof simmental	373,5 $\pm$ 3,38	2,86	475,9 $\pm$ 4,33	2,88
II	½ aberdin-angus x ½ simmental	399,6 $\pm$ 3,29***	2,61	518,3 $\pm$ 4,77***	2,91
III	½ limuzin x ½ simmental	391,5 $\pm$ 3,30**	2,67	512,1 $\pm$ 4,61***	2,85
IV	½ sharole x ½ simmental	396,9 $\pm$ 3,49***	2,78	503,3 $\pm$ 4,96***	3,11

Eslatma: *P<0,05, **P<0,01, ***P<0,001



1-rasm. Tajriba guruhlaridagi simmental va F₁ duragay buqachalarni bo'rdoqilash davridagi tirik vazn dinamikasi, kg

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, sanoat asosida chatishtirishdan olingan II guruh ($\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental), III guruh ($\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental) va IV guruh ($\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental) F₁ duragay buqachalar I guruh sof simmental zotli buqachalarga nisbatan bo'rdoqilash davrida tirik vazni yuqori bo'ldi. Xususan, 12-16 oyligida II; III va IV guruh F₁ duragay buqachalar I guruh sof simmental zotli buqachalarga nisbatan tegishli ravishda 26,1 kg yoki 7,0% ga (P<0,001); 18,0 kg yoki 4,8% ga (P<0,01) va 23,4 kg yoki 6,3% ga (P<0,001) va bo'rdoqilash yakuni bo'yicha (16 oyligida) tirik vazni II; III va IV guruh F₁ duragay buqachalar I guruh sof simmental zotli buqachalarga nisbatan tegishli ravishda 42,4 kg yoki 8,9% ga (P<0,001), 36,2 kg yoki 7,6% ga (P<0,001) va 27,4 kg yoki 5,6% ga (P<0,001) yuqori bo'ldi (1-rasm).

Duragay buqachalar o'rtasida ham sezilarli farq kuzatildi. Jumladan, II guruh ($\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental) buqachalar III guruh ($\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental) va IV guruh ($\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental) buqachalarga nisbatan 6,2 kg yoki 1,2% ga va 15,0 kg yoki 3,0% ga (P<0,05) ustunlik qildi.

Umuman olganda, buqachalarning tirik vazni bo'yicha aniqlangan guruhlar o'rtasidagi farq ularning bo'rdoqilash davrida o'sish jadalligi bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ldi, bu esa buqachalarni semizlik darajasi va yuqori tirik vazni bilan ta'minlaganligini bildiradi.

Qoramol go'shti ishlab chiqarish hajmini jadallashtirishda buqachalar tirik vaznining mutloq o'sishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tajribadagi buqachalarining tirik vazni bo'yicha guruhlar o'rtasidagi aniqlangan farq, ular o'sishi va rivojlanishining ma'lum bir yosh davridagi jadalligi bilan bog'liq bo'ladi.

Sanoat asosida chatishtirishdan olingan birinchi bo'g'in (F₁) duragay buqachalar sof zotli buqachalarga nisbatan mutloq o'sishi bo'rdoqilash davrida (12-16 oyda) ustunlik qildi. Bunda asosan II guruh ($\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental), III guruh ($\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental) va IV guruh ($\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental) F₁ duragay buqachalar o'z tengqurlari I guruh sof simmental zotli buqachalarga nisbatan tegishli ravishda 16,3 kg yoki 15,9% ga (P<0,001); 18,2kg yoki 17,8% ga (P<0,001) va 4,2 kg yoki 4,1% ga (P<0,05) hamda 0-16 oyligida 43,9 kg yoki 9,9% ga (P<0,001); 33,3 kg yoki 7,5% ga (P<0,001) va 20,3 kg yoki 4,6% ga (P<0,01) yuqori bo'ldi.

Sanoat asosida chatishtirishdan olingan II guruh ($\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental), III guruh ($\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental) va IV guruh ($\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental) birinchi bo'g'in (F₁) duragay buqachalar 12-16 oyligida guruhlar o'rtasida ham sezilarli farq kuzatildi. Jumladan, III guruh buqachalar II va IV guruh buqachalarga nisbatan 1,9 kg yoki 1,6% ga va 14,0 kg yoki 13,1% ga (P<0,01) 0-16 oyligida II guruh buqachalar III va IV guruh buqachalarga nisbatan tegishlicha 10,6 kg yoki 2,2% ga va 23,6 kg yoki 9,1% ga (P<0,01) yuqori bo'ldi.

Hayvonlarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha baholaganda ularni o'rtacha kunlik o'sishi muhim hisoblanadi. Tajriba guruhlardagi sut-go'sht yo'nalishidagi sof simmental zotli va ularni sanoat asosida chatishtirishdan olingan birinchi bo'g'in (F₁) duragay buqachalarni kunlik o'sish ko'rsatkichlarini hisoblab, 2-jadvalda keltiriladi.


2-jadval

Turli genotipga mansub simmental zotli buqachalarning bo'rdoqilash davridagi kunlik o'sish, g

Guruh	Genotipi	12-16		0-16	
		$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	Cv, %
I	Sof simmetal	853,3 $\pm$ 22,95	8,50	914,6 $\pm$ 9,03	3,12

II	$\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental	989,2 $\pm$ 21,73***	6,95	1005,2 $\pm$ 9,73***	3,06
III	$\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental	1005,0 $\pm$ 28,82***	9,07	983,3 $\pm$ 9,21***	2,96
IV	$\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental	886,7 $\pm$ 16,91*	6,03	956,5 $\pm$ 9,77**	3,23

Eslatma: *P<0,05, **P<0,01, ***P<0,001



2-rasm. Turli genotipga mansub simmental zotli buqachalarni o'rtacha kunlik o'sishi, g

2-jadval va 2-rasm ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, simmental zotli sigirlarni go'sht yo'nalishidagi naslli buqalar urug'lari bilan sanoat asosida chatishtirishdan olingan birinchi bo'g'in (F_1) duragay buqachalar sof simmental zotli buqachalarga nisbatan jadal o'sishni ta'minladi.

Masalan, II guruh ($\frac{1}{2}$ aberdin-angus x $\frac{1}{2}$ simmental), III guruh ($\frac{1}{2}$ limuzin x $\frac{1}{2}$ simmental) va IV guruh ($\frac{1}{2}$ sharole x $\frac{1}{2}$ simmental) birinchi bo'g'in (F_1) duragay buqachalar o'z tengqurlari I guruh sof simmental zotli buqachalarga nisbatan bo'rdoqilash davrida ya'ni o'sish davrining 12-16 oyligida tegishli ravishda 135,9 g yoki 15,9% ga ($P<0,001$); 151,7 g yoki 17,8% ga ($P<0,001$) va 33,4 g yoki 3,9% ga ($P<0,05$) hamda 0-16 oyligida 90,6 g yoki 9,9% ga ($P<0,001$); 68,7 g yoki 7,5% ga ($P<0,001$) va 41,9 g yoki 4,6% ga ($P<0,05$) ustunlik qildi.

Xulosa. simmental zotli sigirlarni go'sht yo'nalishidagi aberdin-angus, limuzin va sharole zotli buqalar urug'i bilan sanoat usulida chatishtirish natijasida olingan birinchi bo'g'in (F_1) duragay buqachalarni bir xil oziqlantirish va saqlash sharoitlarda o'stirilganda ularning tirik vazni, mutloq, kunlik va nisbiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha o'z tengqurlari sof zotli buqachalardan bo'rdoqilash davrlarda ustunlik qilganligi aniqlandi. Bu esa ularning yuqori irsiy imkoniyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Лебедько Е.Я. Модульная типовая ферма по разведению Абердин ангусского скота в системе производства премиальной «Мраморной» говядины. //Ж. Эффективное животноводство. 2019 г., №5, с.62-64.
2. Лукьянов В.Н., Прохоров И.П., Эртуев М.М. Рост, развитие и мясная продуктивность бычков симментальской породы и ее помесей с Абердин-ангусской и лимузинной. //Ж. Молочное и мясное скотоводство. 2017 г., №3, с.22-25.
3. Матвеева И.В., Матвеева Т.В. Межпородное скрещивание и явление гетерозиса при производстве говядины. //Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. 2012 г., №1 (1), с.92-94.
4. Исхаков Р.С. Интенсификация производства говядины при рациональном использовании генетического потенциала крупного рогатого скота. Автор.докт.дисс., Уфа. 2017 г. с.
5. Мадрахимов Ш.Н., Рўзибоев Н.Р. “Саноат асосида чатиштиришдан олинган F₁ дурагай авлодларининг ўсиш кўрсаткичлари”.//“Chorvachilik va naslchilik ishi” 2022 й., №04, 9-11 б.
6. Яковенко А.М, Антоненко Т.И., Селионова М.И. Биометрические методы анализа качественных и количественных признаков в зоотехнии. //Ставрополь, Агрус, 2013 г., с. 91.
7. Madрахimov Sh.N., Roziboev N.R. Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. // E3S Web of Conferences E3S 371, 01003 (2023), <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101003>, (eISSN-2267-1242), p. 1-7.
8. Madрахimov Sh.N. The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. //EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE ISSN 2750-6274 <https://emjms.academicjournal.io> Volume: 22 | Sep-2023, P. 1-6 .
9. Madрахimov Sh.N., А.Х.Абдурасулов А.Х. Рост и развитие бычков симментальской породы и ее помесей с Абердин-ангусской, Лимузинской и Шаролежской. // Вестник ОшГУ. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, №2(7)/2024, e-ISSN: 1694-8696 №3(8)/2024, с. 122-131.
10. DOI: [10.52754/16948696_2024_3\(8\)15](https://doi.org/10.52754/16948696_2024_3(8)15).
11. Kholbekova M., Amirov Sh, Madрахimov Sh., Technological characteristics of milk from Estonian red breed cows. //E3S Web of Conferences 563, 03048 (2024), <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303048>, ICESTE 2024, P. 1-6.
12. Бобокулов, Н., Хатамов, А., Абдузоирова, Д., Юсупов, А., Уримбетов, А. и Олмасов, Б. (2021). Мясная продуктивность овец в Узбекистане и её связь с различными факторами. В *E3S Web of Conferences* (т. 258, с. 04020). EDP Sciences.
13. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
14. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (1), 24-26.
15. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.